



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 8-aprel

161-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 12-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-16-son Farmoni ijrosini ta’minlash haqida”gi 115-6-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta’minlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-16-son Farmoni ijrosini ta’minlash hamda tarmoq va sohalarning uyg‘un “yashil transformatsiya”sini amalga oshirish, ularning raqobatbardoshligi va resurs tejamkorligini ta’minlash, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish hamda aholining yashash sifatini yaxshilash va iqtisodiy o‘sishning yangi “yashil rivojlanish” modeliga o‘tish hamda Namangan viloyati hokimning 2025-yil 12-martdagi 115-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyat hokimning 2025-yil 12-martdagi 115-6-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son Farmoni bilan:
“O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi (keyingi o‘rinlarda - Davlat dasturi) doirasida 1-16-ilovalarga muvofiq quyidagilar:

2025-yilga mo‘ljallangan amaliy tadbirlar rejasi;

2025-yilda ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ro‘yxati;

2025-yilga mo‘ljallangan maqsadli ko‘rsatkichlar;

2025-yilda atrof-muhitni asrash yo‘nalishida vazirlik va idoralar tomonidan birinchi navbatda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan chora-tadbirlar rejasi;

2025-yilda atrof-muhitni asrash bo'yicha xalqaro hamkorlik yo'nalishida chora-tadbirlarni amalga oshirish rejasi;

O'zbekiston Respublikasida "Yashil turizm" dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari rejasi;

2025-yilda hududlarda qayta tiklanuvchi energiya manbalari quvvatlarini joriy etish rejasi;

2025-yilda bahor-kuz mavsumlarida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida mahallalarda daraxtlarni ekish bo'yicha reja;

2025-yilda bahor mavsumida mahallalarda xonadonlar va ichki ko'chalarga gul hamda qalamchalarni ekish rejasi tasdiqlanganligi;

"Atrof - muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili"da mamlakat rivojlanishining ustuvor yondashuvlari belgilab berilganligi;

ustuvor yondashuvlar resurslardan tejamkorlik bilan foydalanishni ko'zda tutuvchi iqtisodiy rivojlanish modeliga o'tish orqali 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulotning yillik o'sishini kamida 6 foiz va uning hajmini 200 milliard AQSH dollariga yetkazish, inflyatsiyani 5 foiz, byudjet taqchilligini yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3 foiz darajasida saqlash, kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish maqsadlariga erishishga asos bo'lishi belgilanganligi;

aholi, ayniqsa, yosh avlod vakillari tomonidan sanitariya-gigiyena vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadida 2025-yil 1-maydan boshlab "Toza qo'llar" dasturi amalga oshirilishi;

2025-yil 1-maydan boshlab Toshkent va Nukus shaharlari hamda viloyat markazlarida asbest, sement ishlab chiqarish, shlam va shlaklar, teri-ko'ncilik, parrandachilik fabrikalari, samaradorligi yuqori bo'lgan chang-gaz tozalash inshootlari bilan jihozlanmagan har qanday turdagi ko'mir yoqish, qora va rangli metallurgiya zavodlari, tarkibida zaharli aralashmalar bo'lgan oyna, zaharli kimyoviy moddalar bilan ishlash, xavflilik darajasining I va II sinfiga mansub chiqindilarni qayta ishlash va yoqish korxonalari yo'nalishlarida yangi loyihalarni amalga oshirish taqiqlanganligi;

o'simlik va hayvonot dunyosini asrash, ko'paytirish va ularni keyingi avlodga yetkazish borasida 2025-yil 1-sentabrdan boshlab yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarni yig'ish va tayyorlash uchun tasdiqlangan kvotalar hamda o'simlik dunyosi obyektlaridan maxsus foydalanish uchun ruxsatnomalarni elektron auksion orqali berish tartibi joriy etilganligi;

atrof-muhitga ta'sir ko'rsatish bo'yicha I va II toifalarga mansub korxonalarning ekologik ishlab chiqarishga o'tishdagi harakatlarini rag'batlantirish maqsadida 2025-yil 1-avgustdan boshlab alohida tartib joriy etilganligi;

2025-yil 1-sentabrdan boshlab tadbirkorlik subyektlarini "yashil tadbirkor" sifatida e'tirof etishni nazarda tutuvchi platforma ishga tushirilishi;

aholi va tadbirkorlik subyektlari tomonidan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanishni rag'batlantirish maqsadida 2025-yil 1-apreldan boshlab chiqindilar utilitatsiyasi hisobiga hamda shamol va quyosh manbalaridan ishlab chiqarilgan elektr energiyasi uchun **"yashil tarif"lar** joriy etilishi;

2025-yil 1-sentyabrdan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyat va tuman (shahar) hokimlarini lavozimga tasdiqlashda va lavozimdan ozod etishda ekologik ko'rsatkichlarni belgilash bo'yicha ekologik audit o'tkazib borilishi;

Davlat byudjeti mablag'laridan samarali va oqilona foydalanishda parlament nazoratini yanada kuchaytirish maqsadida Hukumatning Davlat byudjetiga doir barcha hisobotlarini Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga Hisob palatasining tashqi audit xulosasi bilan birgalikda kiritish amaliyoti yo'lga qo'yilishi belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mingbuloq tumanida "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini samarali tashkil qilish doirasida quyidagilar:

"O'zbekiston - 2030" strategiyasining har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yo'nalishi bo'yicha 2025-yilga mo'ljallangan amaliy tadbirlar rejasi 1-ilovaga muvofiq;

"O'zbekiston - 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi 2-ilovaga muvofiq;

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yo‘nalishi bo‘yicha 2025-yilga mo‘ljallangan maqsadli ko‘rsatkichlar 3-ilovaga muvofiq;

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining Barqaror iqtisodiy o‘rta muhitni yaratish yo‘nalishi bo‘yicha 2025-yilga mo‘ljallangan amaliy tadbirlar rejasi 4-ilovaga muvofiq;

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining Suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish yo‘nalishi bo‘yicha 2025-yilga mo‘ljallangan amaliy tadbirlar rejasi 5-ilovaga muvofiq;

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining Suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish yo‘nalishi bo‘yicha 2025-yilga mo‘ljallangan maqsadli ko‘rsatkichlar 6-ilovaga muvofiq;

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining Qonun ustuvorligini ta‘minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish yo‘nalishi bo‘yicha 2025-yilga mo‘ljallangan amaliy tadbirlar rejasi 7-ilovaga muvofiq;

2025-yilda atrof-muhitni asrash yo‘nalishida Mingbuloq tumani hokimligi tomonidan birinchi navbatda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan chora-tadbirlar rejasi 8-ilovaga muvofiq;

2025-yilda bahor-kuz mavsumlarida “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida mahallalarda daraxtlarni ekish bo‘yicha reja 9-ilovaga muvofiq;

2025-yilda bahor mavsumida mahallalarda xonadonlar va ichki ko‘chalarga gul hamda qalamchalarni ekish bo‘yicha reja 10-ilovaga muvofiq;

Mingbuloq tumanida 2025-yil bahor mavsumida manzarali, mevali daraxt hamda buta ko‘chatlarini ekish prognoz ko‘rsatkichlari 11-ilovaga muvofiq;

Mingbuloq tumanida 2025-yil kuz mavsumida manzarali, mevali daraxt hamda buta ko‘chatlarini ekish prognoz ko‘rsatkichlari 12-ilovaga muvofiq;

“O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash hamda monitoring qilish bo‘yicha tuman muvofiqlashtiruvchi guruh tarkibi 13-ilovaga muvofiq;

“O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi ijrosini tashkil etish va nazoratini ta‘minlash bo‘yicha tuman ishchi guruhi tarkibi 14-ilovaga muvofiq;

Mingbuloq tumanida “Yashil turizm” dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari rejasi 15-ilovaga muvofiq;

Mingbuloq tumanida “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining Qonun ustuvorligini ta‘minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etishda 2025-yilga mo‘ljallangan amaliy tadbirlar rejasi 16-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Mingbuloq tumani hokimining o‘rinbosari Sh.Xudoyberdiyev, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi tuman bo‘limi (Mamatqulov), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Jurabayev), tegishli mas’ullar bilan birgalikda **2025-yil yakuniga qadar:**

“Yashil makon” umummilliy loyihasi va “Mening bog‘im” loyihasi doirasida joriy yil bahor-kuz mavsumlarida 1,2 million tup daraxt hamda butalar ekilishi, “yashil bog‘lar” va “yashil jamoat parklari”da quyosh panellari yordamida quvvatlanuvchi yoritgichlar o‘rnatish;

jamoatchilik, ekofaollar va biznes vakillarining tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash akseleratsiya tizimi joriy etish;

Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (Sh.Xudoyberdiyev) bilan birgalikda aholi uchun barpo etilayotgan piyodalar va alohida velosiped yo‘laklari bo‘yida daraxtlar va o‘simliklarni ekish orqali “Soyali sayr ko‘chalari” tarmog‘ining yaratilishini tashkil qilish va sog‘lomlashtirish yo‘laklarini qurish;

“Zardaryo” ITB (Xudoyberdiyev), O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo‘limi (Kamalov) bilan birgalikda yomg‘ir va oqova suvlardan samarali foydalanish, mahallalardagi daraxtlarni zamonaviy suv tejovchi texnologiyalar orqali sug‘orish tizimini joriy etish natijasida yashillik darajasini oshirish choralari ko‘rish topshirilsin.

5. Tuman hokimining o‘rinbosarlari A.Abdusalomov, Sh.Xudoyberdiyev, I.Ergashev hamda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi tuman bo‘limi (Mamatqulov) bilan birgalikda 2025-yil yakuniga qadar foydalanilmayotgan zaxiralarini aniqlab, ularning imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish va aholining daromadlarini oshirish choralari ko‘rsin.

6. Tuman hokimining o‘rinbosari Sh.Xudoyberdiyev, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Mingbuloq tuman bo‘limi (Kamalov), tegishli mas’ullar, barcha mahalla raislari bilan birgalikda:

bir hafta muddatda 2025-yilda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida mahallalarda daraxt ko‘chatlarini hamda xonadonlar va ichki ko‘chalarga gul va qalamchalarni ekish dasturini ishlab chiqsin;

2025-yil bahor mavsumida respublikadagi barcha mahallalarning ichki ko‘chalari va aholi xonadonlarida 500 ming tup mevali va manzarali daraxtlar, buta ko‘chatlarini hamda rayhon, gultoji, atirgul va boshqa gullar, shuningdek, qalamchalarni ekish va parvarishlab borishni;

“Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” mezonlarini joriy etish maqsadida 2025-yilning 15-apreliga qadar har bir xonadon, ko‘cha va **qabristonlarda obodonlashtirish** hamda **ko‘kalamzorlashtirish** ishlarini uyushqoqlik bilan tashkil etsin;

Mazkur badda nazarda tutilgan tadbirlar Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg‘armasi, homiylik va xayriya mablag‘lari hisobidan amalga oshirilishi belgilansin;

Navro‘z bayramiga qadar mahallalar o‘rtasida “Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” ko‘rik-tanlovlarining o‘tkazilishini ta‘minlasin.

7. Tuman hokimining o‘rinbosari Sh.Xudoyberdiyev, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi tuman bo‘limi (Mamatqulov), O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo‘limi (Kamalov), tegishli mas‘ullar bilan birgalikda “Bir million yashil oila” umummilliy harakati doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlasin.

8. Tuman hokimining o‘rinbosarlari A.Abdusalomov, Sh.Xudoyberdiyev, I.Ergashev, J.Raximov, Yo.Mamitaliyeva tumandagi tegishli idora va tashkilotlar bilan birgalikda:

Tuman hokimining mazkur qarori bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar rejalarida belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli ijro etilishini ta‘minlasin;

“Taraqqiyot strategiyasi” markazi va “Yuksalish” harakatiga Davlat dasturining amalga oshirilishi, shu jumladan, jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda tanqidiy o‘rganib borish bo‘yicha faoliyatiga har tomonlama ko‘maklashsin;

belgilangan vazifalar ijrosi bo‘yicha har oy yakuni bilan tegishli hisobotlarni tuman monitoring guruhiga taqdim etib borsin.

9. Davlat dasturi bajarilishini tahlil qilish hamda muvofiqlashtirib borish maqsadida, tuman hokimligi huzurida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi tuman bo‘limi, Iqtisodiyot va moliya bo‘limi, “Namangan hududiy elektr tarmoqlari korxonasi” AJ tuman bo‘limi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi, tumandagi tijorat banklari, Adliya bo‘limi, Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo‘limi, Savdo-sanoat palatasi tuman bo‘limlari bir nafardan malakali xodimlarini jalb etgan holda, Monitoring guruhi tashkil etilsin;

Monitoring guruhi Davlat dasturi amalga oshirilishining borishi to‘g‘risidagi axborotni har oyda umumlashtirish hamda yakunlarini aniq ko‘rsatkichlar va erishilgan ijobiy o‘zgarishlarni, tahliliy axborot ko‘rinishida aks ettirgan holda, Namangan viloyati hokimligiga va tuman hokimiga kiritib borilishini ta‘minlasin.

10. Tuman hokimining o‘rinbosari Sh.Xudoyberdiyev:

dasturga kiritilgan tadbirlar to‘liq, o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini tashkil etsin;

“O‘zbekiston - 2030” strategiyasida nazarda tutilgan ustuvor yo‘nalishlarni hamda dasturning bajarilishi to‘g‘risidagi umumlashtirilgan ma‘lumotlarni har oyning 25-sanasiga qadar Namangan viloyati hokimligi huzurida tashkil etilgan Monitoring guruhiga taqdim etib borsin.

11. Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati bilan birgalikda:

tuman Xalq deputatlari kengashi Davlat dasturi ijrosini samarali, qat‘iy tartib-intizom asosida tashkil etib, o‘n kun muddatda mahalla kesimida amaliy chora-tadbirlarni belgilash hamda keng jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari ishtirokida muntazam ravishda mas‘ul shaxslarning hisobotini eshitib borish tavsiya etilsin;

Xalq deputatlari Mingbuloq tuman Kengashi tomonidan dasturda belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan muntazam o‘rganishlarni amalga oshirish, o‘rganish natijalari bo‘yicha doimiy komissiyalar yig‘ilishlarida muhokamalar o‘tkazib borish, belgilangan vazifalar ijrosiga mas‘ul bo‘lgan rahbarlarning hisobotlarini eshitib borish tizimini joriy etsin hamda bu borada tashkilotlar faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqish tavsiya etilsin.

12. Tashkiliy kadrlar guruhi rahbari (Narmatov) har oyda kamida bir marta dasturning bajarilishi yuzasidan tahliliy ma'lumotlarni tuman hokimi huzurida o'tkaziladigan "hokimlik soati" muhokamalariga kiritib borsin.

13. Tuman hokimligi axborot xizmati (Kenjayev), "Mingbuloq" gazetasi (Akbarov)ga muntazam ravishda:

Davlat dasturining maqsad va vazifalarini ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan, Internet axborot tarmog'ida va ijtimoiy tarmoqlarda keng sharhlab borish hamda uning mazmun-mohiyatini jamoatchilikka tushuntirish;

"O'zbekiston – 2030" strategiyasi va Davlat dasturi doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning borishi va natijalari to'g'risidagi xolis va to'liq ma'lumotlarni jamoatchilikka tezkorlik bilan yetkazib borish tavsiya etilsin.

14. Ushbu qarorning bajarilishi bo'yicha shaxsiy javobgar va mas'ul etib tuman hokimining birinchi o'rinbosari A.Abdusalomov, tuman hokimining o'rinbosarlari Sh.Xudoyberdiyev, I.Ergashev, J.Raximov, Yo.Mamitaliyevalar belgilansin.

15. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Tuman hokimi



A.Mansurov

Mingbuloq tumani hokimining
2025-yil 8-apreldagi
161-6-81-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**«O‘zbekiston — 2030» strategiyasining Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yo‘nalishi
bo‘yicha 2025-yilga mo‘ljallangan**

AMALIY TADBIRLAR REJASI

T/r	Vazifalar	Amaliy chora-tadbirlar	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbalari	Ijrochilar
HAR BIR INSONGA O‘Z SALOHIYATINI RO‘YOBGA CHIQARISH UCHUN MUNOSIB SHAROITLAR YARATISH					
1-maqsad: Maktabgacha ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning to‘liq qamrovini ta’minlash					
Ijro uchun asosiy mas’ul — Maktabgacha va maktab ta’limi bo’limi(O.Xujayev)					
	Maktabgacha ta’lim tashkilotlari mavjud bo’lmagan olis va chekka hududlarda maktabgacha ta’limning muqobil shakllarini tashkil etish.	1. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari mavjud bo’lmagan olis va chekka hududlardagi mahallalar ro’yxatini shakllantirish.	2025-yil aprel	Xalqaro moliya institutlari, xorijiy va donor tashkilotlarning grantlari va mablag’lari	Tuman hokimining o’rinbosari (J.Raximov), Maktabgacha va maktab ta’limi bo’limi (O.Xujayev), aloqador tashkilot- idora rahbarlari
		2. Shakllantirilgan ro’yxatdagi mahallalarda maktabgacha ta’limning muqobil shakli bo’lgan mobil guruhlar faoliyatini yo’lga qo’yish. Bunda mobil guruhlar uchun maxsus xonalar ajratish hamda joylarda o’yin maydonchalarini tashkil etish.	2025-yil may		
2-maqsad: Umumiy o’rta ta’lim tizimida «Ta’lim uchun qulay muhit» dasturini amalga oshirish					
Ijro uchun asosiy mas’ul — Maktabgacha va maktab ta’limi bo’limi (O.Xujayev)					
	Uyda ta’lim olayotgan o’quvchilar uchun qulayliklar yaratish.	Uyda ta’lim olayotgan o’quvchilar uchun ta’limning mazkur yo’nalishi bo’yicha elektron va video darsliklar yaratish hamda ularga mustaqil shug’ullanishlari uchun qulay muhit va sharoitlar yaratish.	2025-yil davomida	Davlat budjetidan ajratilgan mablag’lar doirasida	Tuman hokimining o’rinbosari (J.Raximov), Maktabgacha va maktab ta’limi bo’limi (O.Xujayev),

					aloqador tashkilot- idora rahbarlari
	Umumta’lim maktablarini zamonaviy o‘quv va sport anjomlari bilan ta’minlash.	1. Umumta’lim maktablarini tabiiy fanlar laboratoriya jihozlari, sport jihozlari va milliy musiqa cholg‘u asboblari bilan ta’minlash bo‘yicha manzilli dasturni tasdiqlash.	2025-yil aprel	Davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida	Tuman hokimining o‘rinbosari (J.Raximov), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Z.Jo‘raboyev), Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (O.Xujayev), aloqador tashkilot- idora rahbarlari
		2. Tasdiqlangan dasturga asosan tabiiy fanlar laboratoriya jihozlari, sport jihozlari va milliy musiqa cholg‘u asboblari ni belgilangan tartibda xarid qilish.	2025-yil noyabr		
3-maqsad: Umumiy o‘rta ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish					
Ijro uchun asosiy mas’ul — Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi(O.Xujayev)					
	Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida bilimni baholashning yangi tartibi joriy etilgan maktablar sonini oshirish.	1. 2024/2025 o‘quv yili yakunida 6 ta umumta’lim maktablarida joriy etilgan bilimni baholashning yangi tartibi samaradorligini tahlil qilish.	2025-yil iyun	Davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida	Tuman hokimining o‘rinbosari (J.Raximov), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Z.Jo‘raboyev), Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi(O.Xujayev),
		2. Tahlillar natijasida mazkur tartibni yanada takomillashtirish hamda 2025-2026 o‘quv yilidan boshlab yangi baholash tizimi joriy etiladigan maktablar sonini 21 taga yetkazish.	2025-yil sentyabr		

	Umumiy oʻrta taʼlim muassasalariga 2 nafar xorijiy mutaxassislarni jalb etish.	1. Rekruting tashkilotlari hamda vazirlikning rasmiy ijtimoiy sahifalari orqali xorijiy mutaxassislar uchun eʼlonlar berish. 2. Kelib tushgan murojaatlarni oʻrganib chiqish, saralash va suhbatlar tashkil etish.	2025-yil avgust	Davlat budjetidan ajratilgan mablagʻlar doirasida	Tuman hokimining oʻrinbosari (J.Raximov), Iqtisodiyot va moliya boʻlimi (Z.Joʻraboyev), Maktabgacha va maktab taʼlimi boʻlimi (O.Xujayev), aloqador tashkilot- idora rahbarlari
4-maqсад: Umumiy oʻrta taʼlimni rivojlantirish uchun xususiy sektorni keng jalb qilish					
<i>Ijro uchun asosiy masʼul — Maktabgacha va maktab taʼlimi boʻlimi (O.Xujayev)</i>					
	Nodavlat umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlari qamrovini kengaytirish.	Nodavlat umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlari sonini 3 taga yetkazish choralari koʻrish.	2025-yil sentyabr	Tadbirkorlik subʼektlari mablagʻlari	Savdo-sanoat palatasi (S.Egamberditev), Maktabgacha va maktab taʼlimi boʻlimi (O.Xujayev), aloqador tashkilot-
					idora rahbarlari
5-maqсад: Kasbiy taʼlim tizimini rivojlantirish orqali oʻquvchilarni zamonaviy bilim va koʻnikmalarga oʻrgatish					
<i>Ijro uchun asosiy masʼul — Kasb xunar maktab direktorlari</i>					
1.	Kasbiy taʼlim muassasalarida malaka toifasiga ega boʻlgan pedagog kadrlar ulushini 40 foizga yetkazish.	1. Majburiy va ixtiyoriy ravishda attestatsiyaga jalb etiladigan pedagoglarni Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligining “pedagog.edu.uz” platformasi orqali roʻyxatdan oʻtishlarni taʼminlash. 2. Pedagoglarni attestatsiyadan oʻtkazish va ularga tegishli malaka toifalarini berish.	2025-yil noyabr	Davlat budjetidan ajratilgan mablagʻlar doirasida	Mingbuloq tuman hokimi oʻrinbosari (J.Raximov), Kasb xunar maktab direktorlari
2.	Xalqaro taʼlim dasturlari asosida Mingbuloq tuman 1-son politexnikumida oʻrta boʻgʻin kadrlarini tayyorlashni yoʻlga qoʻyish.	1. Xalqaro taʼlim dasturlari joriy etiladigan Mingbuloq tuman 1-son politexnikumida kasb va mutaxassisliklarni belgilash. 2. Xalqaro taʼlim dasturini tarjima qilish va texnikumlarga yetkazish.	2025-yil mart 2025-yil iyun	Davlat budjetidan ajratilgan mablagʻlar doirasida	Mingbuloq tuman hokimi oʻrinbosari (J.Raximov), Mingbuloq tumanidagi 1-son politexnikumi (A.Axunov), aloqador tashkilot-idoralar

		3. Texnikum o'qituvchilarining malakasini oshirish.	2025-yil iyul		rahbarlari
		4. Xalqaro ta'lim dasturlariga o'quvchilarni qabul qilish va ta'lim jarayonini tashkil etish.	2025-yil sentyabr		
13-maqсад: Aholining o'rtacha umr davomiyligini oshirish					
<i>Ijro uchun asosiy mas'ul — Tuman tibbiyot birlashmasi (O.Qo'ldoshev)</i>					
	Aholi o'rtasida eng ko'p uchraydigan kasalliklarni barvaqt aniqlash va ular bilan kasallanish holatlarini keskin kamaytirish.	1. Profilaktik ko'riklar jadvalini tasdiqlash. 2. 18-40 yoshli 21 ming 919 nafar aholini profilaktik ko'rikdan o'tkazish. 3. 38 ming 500 nafar 40 va undan katta yoshdagi aholi orasida eng ko'p uchraydigan yurak-qon tomir, qandli diabet, o'pkaning surunkali obstruktiv kasalliklari xavfini aniqlash maqsadida profilaktik ko'riklarni o'tkazish. 4. Kasallik aniqlangan fuqarolarni individual sog'lomlashtirish choralari ko'rish.	2025-yil fevraldan boshlab tarmoq rejasi asosida	Davlat budjetidan ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag'lar	Tuman tibbiyot birlashmasi (O.Qo'ldoshev)
	Boshqariluvchi yuqumli kasalliklar bo'yicha epidemiologik barqarorlikni ta'minlash maqsadidaprofilaktik emlash tadbirlarini izchil amalga oshirish.	15 106 nafar bolani 13 turdagi vaksina bilan boshqariluvchi yuqumli kasalliklarga qarshi emlash.	2025-yil fevraldan boshlab reja-grafik asosida	Davlat budjetidan ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag'lar	Mingbuloq tuman sanitariya epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi bo'limi (U.Boynazarov), Tuman tibbiyot birlashmasi (O.Qo'ldoshev),
14-maqсад: Aholiga birlamchi tibbiy xizmatlarni yanada yaqinlashtirish					
<i>Ijro uchun asosiy mas'ul — Tuman tibbiyot birlashmasi (O.Qo'ldoshev)</i>					
	Diabet kasalligi bor bemorlarni davolash bilan to'liq qamrab olish.	«D» nazoratda turadigan surunkali diabet kasalligi bor bemorlarni ambulator va stasionar sharoitda davolash.	2025-yil fevraldan boshlab reja-grafik asosida	Davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar doirasida, Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi	Tuman tibbiyot birlashmasi (O.Qo'ldoshev)

	Yurak-qon tomir kasalligi bor bemorlarni davolash bilan to'liq qamrab olish.	«D» nazoratda turadigan surunkali yurak-qon tomir kasalligi bor bemorlarni ambulator va stasionar sharoitda to'liq davolash.	2025-yil fevraldan boshlab reja-grafik asosida	Davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar doirasida, Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi	Tuman tibbiyot birlashmasi (O.Qo'ldoshev)
15-maqсад: Bolalar o'rtasidagi irsiy kasalliklarning oldini olish va davolash samaradorligini oshirish					
<i>Ijro uchun asosiy mas'ul — Tuman tibbiyot birlashmasi (O.Qo'ldoshev)</i>					
	Irsiy kasalliklar bilan kasallangan bolalarni davolash ishlarini tashkillashtirish.	Irsiy kasalliklar bilan kasallangan bolalarni dori vositalari, tibbiy buyumlar va shifobaxsh oзуqalar bilan to'liq ta'minlash.	2025-yil fevraldan boshlab yil davomida	Davlat budjetidan ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag'lar doirasida	Iqtisodiyot va moliya bo'limi (Z.Jo'raboyev), Tuman tibbiyot birlashmasi (O.Qo'ldoshev)
4.	Bolalar orasida irsiy kasalliklarni aniqlash uchun ommaviy va selektiv skrining o'tkazish.	1. 10024 nafar chaqaloqlarni tug'ma gipoterioz, fenilketonuriya kasalliklarini aniqlash bo'yicha neonatal skriningdan o'tkazish.	2025-yil fevraldan boshlab reja-grafik asosida	Davlat budjetidan ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag'lar doirasida	Tuman tibbiyot birlashmasi (O.Qo'ldoshev)
		2. 6 ta lizosomal (Goshe, Pompe, Fabri, Krabbe, A va V turdagi Nimmana-Pika kasalliklari hamda I tipi) kasalliklarga ko'rsatma asosida xavf guruhiga kiruvchi chaqaloq va bolalarda har yili selektiv skrining o'tkazish.			
16-maqсад: Onalar va bolalar o'limini qisqartirish, sog'lom bolalikni ta'minlash					
<i>Ijro uchun asosiy mas'ul — Tuman tibbiyot birlashmasi (O.Qo'ldoshev)</i>					
	Bolalar orasida ommaviy va selektiv skrining o'tkazish.	1. 3-18 yoshli 30 ming. nafar bolalarni onkologematologik kasalliklarni erta aniqlash bo'yicha ommaviy va selektiv skriningdan o'tkazish. 2. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarni eshitish qobiliyatini aniqlash bo'yicha audioskriningdan o'tkazish.	2025-yil fevraldan boshlab tarmoq rejasiga muvofiq doimiy	Davlat budjetidan ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag'lar doirasida	Tuman tibbiyot birlashmasi (O.Qo'ldoshev)
17-maqсад: Onkologik kasalliklarni erta aniqlash va o'lim ko'rsatkichini kamaytirish					
<i>Ijro uchun asosiy mas'ul — Tuman tibbiyot birlashmasi (O.Qo'ldoshev)</i>					

	Xavf guruhiga mansub bo'lgan aholini onkologik kasalliklar bo'yicha skrining tekshiruvlaridan o'tkazish.	1. Markaziy poliklinikalarda Onkonazorat xonasi uchun ichki imkoniyatlardan kelib chiqqan holda alohida akusher-ginekolog shifokori shtatini ajratish.	2025-yil fevral	Davlat budjetidan ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag'lar	Tuman tibbiyot birlashmasi (O.Qo'ldoshev)
		2. Ayollarni tibbiy ko'rikka taklif qilish tizimini yaratish va elektron bazasini (ro'yxatni) shakllantirish.	2025-yil yakuniga qadar		
		3. Yiliga 6425 ming nafar ayolni bachadon bo'yni saratoni va 6425 ming nafar ayolni ko'krak bezi saratonini erta aniqlash bo'yicha maqsadli skriningdan o'tkazish.	Doimiy		

18-maqсад: Yuqumli bo'lmagan kasalliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish

<i>Ijro uchun asosiy mas'ul — Tuman tibbiyot birlashmasi (O.Qo'ldoshev)</i>					
5.	Aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish.	Aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish choralari ko'rish. Bunda: 1. Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida to'g'ri ovqatlanish va jismoniy faollik bo'yicha targ'ibot ishlarini olib borish rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish. 2. «Mahalla yettiligi» bilan birgalikda aniq reja-grafik asosida mahallalarda to'g'ri ovqatlanish va jismoniy faollik bo'yicha targ'ibot ishlarini tashkil etish.	2025-yil fevraldan boshlab reja-grafik asosida	Mablag' talab etilmaydi	O'zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo'limi (A.Kamalov), Tuman tibbiyot birlashmasi (O.Qo'ldoshev) Manfaatdor tashkilot va korxonalar

19-maqсад: Sog'lom va faol keksalikni ta'minlash

<i>Ijro uchun asosiy mas'ul — O'zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo'limi (A.Kamalov)</i>					
6.	Katta yoshdagi aholi orasida to'g'ri ovqatlanish, jismoniy faollik va yuqumli bo'lmagan kasalliklar profilaktikasi bo'yicha individual va ommaviy	1. Kexsa yoshdagi aholining kun tartibini to'g'ri tashkillashtirish, jismoniy faollik va kasalliklar profilaktikasi bo'yicha targ'ibot materiallarini tarqatish va ommaviy axborot vositalarida yoritish.	2025-yil fevral-mart	«Nuroni» jamg'armasi mablag'lari	Tuman tibbiyot birlashmasi (O.Qo'ldoshev), Sport maktabi (M.Abduqodirov), tuman xokimligi

	targ'ibot o'tkazish.	tadbirlarini	2. Katta yoshdagi aholi orasida skandinavcha yurish va ularga mos boshqa sport turlarini joriy qilish, «Keksalik gashti» shiori ostida yengil sport musobaqalarini o'tkazib borish.	2025-yil aprel — noyabr		
20-maqсад: Aholi orasida to'g'ri ovqatlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish						
<i>Ijro uchun asosiy mas'ul</i> — Tuman tibbiyot birlashmasi (O.Qo'ldoshev)						
7.	Aholi orasida to'g'ri		Yoshi, tana tuzilishi, turmush tarzi	2025-yil fevral		
	ovqatlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha targ'ibotni kuchaytirish.		va kasalliklarga moyilligidan kelib chiqib, kattalar va keksalar uchun to'g'ri ovqatlanish, sog'lomlashtirish mashqlari va gigiyena qoidalarini mahallalarda targ'ib qilish.	oyidan boshlab yil davomida		Mingbuloq tuman sanitariya epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi bo'limi (U.Boynazarov)
30-maqсад: Yoshlarni zamonaviy kasblar va chet tillariga o'qitish tizimini yaratish						
<i>Ijro uchun asosiy mas'ul</i> — Yoshlar ishlari agentligi (M Mamasobirov)						
8.	Yoshlarni chet tillariga o'qitish tizimini takomillashtirish.		1. Chet tillarini o'qitishga ixtisoslashgan nodavlat ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish.	2025-yil fevraldan boshlab yil davomida	Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari	Yoshlar ishlari agentligi (M Mamasobirov), maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (O.Xujayev), NNT (kelishuv asosida)

9.	Yoshlar, ayniqsa kam ta'minlangan oilalar farzandlarini zamonaviy kasblarga o'qitishni rivojlantirish.	1. Yoshlarni kasb-hunarga o'qitish, zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish bo'yicha 15 nafargacha yoshlarni zamonaviy kasblarga o'qitish. 2. Kasbiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirish orqali ularning bandligini ta'minlash, yuqori daromad topish imkoniyatlarini kengaytirishga ko'maklashish.	2025-yil fevraldan boshlab yil davomida	Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari	Yoshlar ishlari agentligi (M.Mamasobirov), maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (O.Xujayev), NNT (kelishuv asosida)
----	--	---	---	--	--

32-maqсад: Yoshlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va ishsizlik darajasini kamaytirish						
Ijro uchun asosiy mas’ul — Yoshlar ishlari agentligi (B.Mirzatov)						
	Mahallalarda istiqomat qilayotgan va xorijdagi yoshlar bilan muloqot qilish, ularning muammo va takliflarini o’rganish hamda ularning muammolarini hal etish choralarini ko’rish.	1. Sektor rahbarlari va yoshlar uchrashuvlari bo’yicha chora-tadbirlar rejasini tasdiqlash. 2. Rahbar va yoshlar uchrashuvlarini yuqori saviyada tashkil etish. 3. Uchrashuvda bildirilgan muammo va takliflarni hal etish choralarini ko’rish.	2025-yil fevraldan boshlab yil davomida	Ijrochilar mablag‘lari	Tuman xokimining o‘rinbosari (J.Raximov), Yoshlar ishlari agentligi (M.Mamasobirov), tegishli masullar sektor raxbarlari	
	Yoshlarning bandligini ta’minlash.	1. Hududlarda ishsiz yoshlar bandligini ta’minlash dasturlarini ishlab chiqish.	2025-yil mart	Davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (Z. Axmadjonov), Agrobank, Xalq bank, Mikro kredit bank,, tegishli masullar, tuman sektor raxbarlari	
		2. Yoshlar bandligini ta’minlash dasturlari asosida ularga subsidiya, kredit, yer ajratish hamda bo’sh ish o‘rinlariga joylashtirish orqali bandligini ta’minlash choralarini ko’rish.	2025-yil mart oyi yakuniga qadar			
34-maqсад: Jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanadigan yoshlar qamrovini kengaytirish						
Ijro uchun asosiy mas’ul — Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi(O.Xujayev)						
10.	O‘quvchilar o‘rtasida gimnastika bo’yicha «Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri	1. Musobaqaning tuman bosqichini o‘tkazish.	2025-yil oktyabr	Homiylik, xayriya va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar	Sport maktab (M.Abduqodirov), Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (O.Xujayev),	
		2. Musobaqaning viloyat bosqichini o‘tkazish.	2025-yil noyabr			

	kubogi» sport musobaqasini o‘tkazish.	3. Musobaqaning respublika (final) bosqichini o‘tkazish va g‘oliblarni rag‘batlantirish.	2025-yil dekabr	hisobidan	
<i>Ijro uchun asosiy mas’ul — Sport maktab (M.Abduqodirov)</i>					
	Sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish maqsadida	1. Ommaviy sport musobaqalari qamrovini 15 ming nafarga	2025-yil aprel — dekabr	Sport va ommaviy jismoniy tarbiya	Yoshlar ishlari agentligi
	Ommaviy sport Musobaqalarida aholi qamrovini kengaytirish.	yetkazish. Bunda: mahallalarda istiqomat qiluvchi aholi, xususan yoshlarga tarqatiladigan ommaviy sportni keng targ‘ib qiluvchi buklet namunalarini ishlab chiqish va tarqatish; «Besh tashabbus olimpiadasi» doirasida ommaviy sport musobaqalarini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tegishli idoralar bilan hamkorlikni rivojlantirish; ommaviy sport musobaqalarini mahalla yoshlari, maktab, kasbiy ta’lim muassasalari o‘quvchi va talabalari, davlat tashkilotlari xodimlari hamda 30 yoshdan katta aholi o‘rtasida tashkil qilish.		tadbirlarining kalendar rejasida nazarda tutilgan mablag‘lar hamda ijrochilar mablag‘lari	(M. Mamasobirov), Kasbiy ta’lim muassasalari direktorlari, Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (O.Xujayev), tuman hokimligi
		2. Aholining 11 ta yosh toifalari bo‘yicha barcha hududlarda har yili jismoniy tayyorgarlik sinovlarini o‘tkazish.	2025-yil davomida		
35-maqсад: Respublikada sport bilan professional va doimiy shug‘ullanuvchi yoshlar ulushini oshirish					
<i>Ijro uchun asosiy mas’ul — Sport maktab (M.Abduqodirov)</i>					

	Davlat sport-ta'lim muassasalarida muntazam shug'ullanuvchi yoshlar sonini oshirish.	Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanuvchi yoshlar sonini 2.600 nafarga yetkazish. Bunda: ommaviy sport musobaqalarida natija ko'rsatgan iqtidorli yoshlarni sport maktablariga seleksiya qilish; sport turlari bo'yicha seksiyalar sonini oshirish;	2025-yil dekabr	-	Yoshlar ishlari agentligi (M.Mamasobirov), Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi(O.Xujayev), Sport maktab (M.Abdugodirov)
		sport-ta'lim muassasalarida shug'ullanuvchilar qamrovini oshirish maqsadida joylardagi Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari bilan hamkorlikda seleksiya va targ'ibot ishlarini amalga oshirish; sport-ta'lim muassasalarida sport chiquvchilarning mashg'ulotlardagi davomati «Facye ID» tizimi orqali yuritilishini to'liq yo'lga qo'yish.			
	Mavjud sport maktablarida aholi soni va ixtisoslashuviga ko'ra olimpiya sport turlari bo'yicha sport seksiyalarini tashkil etish.	Mavjud sport maktabida aholi soni va ixtisoslashuviga ko'ra olimpiya sport turlari bo'yicha sport seksiyalarini 11 taga yetkazish. Bunda: oliy ta'lim muassasalarida jismoniy madaniyat va sport ta'limi yo'nalishida ta'lim olayotgan 3-4 kurs talabalari hamda « Besh tashabbus olimpiadasi » musobaqalarida sportchilarni munosib tayyorlagan umumta'lim maktablarining jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari bazasini shakllantirish; sport guruhlarini trener lavozimiga ishga qabul qilingan talabalar va jismoniy tarbiya fani o'qituvchilariga biriktirish.	2025-yil davomida	-	Yoshlar ishlari agentligi (M. Mamasobirov), Sport maktab (M. Abdugodirov), Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (O.Xujayev)
36-maqсад: Milliy terma jamoalarga yuqori malakali va natijador sportchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish					

<i>Ijro uchun asosiy mas'ul — Sport maktab (M.abduqodirov)</i>					
11.	Sport razryadi va unvoniga ega sportchilar sonini oshirish.	Razryadli va unvonli sportchilar sonini 350 nafarga yetkazish. Bunda sport unvonlari va sport	2025-yil dekabr	Sport maktab (M.Abduqodirov) mablag'lari	
		razryadlarini berish bo'yicha davlat xizmatini proaktiv shaklga o'tkazish yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish.			Adliya bo'limi (A. Qodirov)
37-maqсад: Olimpiya va paralimpiya harakatini rivojlantirish					
<i>Ijro uchun asosiy mas'ul — Sport maktab (M.Abduqodirov)</i>					
	2026-yilda Aichi perfekturasining Nagoya shahrida (Yaponiya) bo'lib o'tadigan XX yozgi Osiyo va V Paraosiy o'yinlariga O'zbekiston sportchilari tayyorgarligini tashkil etish.	Osiyo o'yinlariga tayyorgarlik ko'rish uchun terma jamoa tarkibini shakllantirish.	2025-yil mart	Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasida nazarda tutilgan mablag'lar hamda ijrochilar mablag'lari	Yoshlar ishlari agentligi (M. Mamasobirov), Sport maktab (M. Abduqodirov), Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (O.Xujayev)
		Uzluksiz o'quv-mashg'ulot yig'inlarini o'tkazish.	2025-yil davomida		
		O'zbekiston delegatsiyasining ishtirokini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan barcha moliyaviy va tashkiliy masalalarni hal qilish.	2025-yil oktyabr		
	2028-yilda Los-Anjeles shahrida (AQSH) bo'lib o'tadigan yozi Olimpiya va Paralimpiya yig'inlariga O'zbekiston sportchilari tayyorgarligini tashkil etish.	Musobaqalarga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha respublika va xalqaro o'quv-mashg'ulot yig'inlarini tashkil etish. Yozi Olimpiya o'yinlari oldi xalqaro musobaqalarda ishtirok etish.	2025-yil davomida	Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasida nazarda tutilgan mablag'lar hamda ijrochilar mablag'lari	Yoshlar ishlari agentligi (M. Mamasobirov), Sport maktab (M. Abduqodirov), Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (O.Xujayev)
41-maqсад: O'zbek milliy san'atini targ'ib qilish orqali mamlakatimizning turistik salohiyatini oshirish.					
<i>Ijro uchun asosiy mas'ul — Madaniyat boshqarmasi (Z. Sarimsaqov)</i>					
36.	77-band: Jamiyatda o'zaro hurmat muhitini shakllantirish, ayniqsa, yoshlarda odobxloq me'yorlariga amal qilish, milliy qadriyatlarni	1. Mavzuga oid spektakllar, kino asarlari, targ'ibot roliklarini yaratish hamda ularni ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali targ'ib etish. Bunda: yoshlarda jamiyatda o'zini tutish, muomala madaniyati, qadriyatlarga	2025-yil davomida	Ijrochilarga Davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar doirasida	Tuman Ekologiya bo'limi (T.Mamatqulov)

	e'zozlash, jamoat joylarida belgilangan tartib-qoidalarga rioya etish ko'nikmasini shakllantirish.	hurmat ruhini shakllantirish; "Mahallam tozaligi – yurtim obodligi" g'oyasi asosida tozalik madaniyati har bir insonning shaxsiy mas'uliyati ekanligini jamoatchilik ongiga singdirish; "Xonadonim, Vatanim obodligi, ekologiya va atrof-muhit musaffoligi – sog'lom kelajagimiz garovi" mavzusida spektakl, kino va targ'ibot roliklarini yaratishga alohida e'tibor qaratish. Yaratilgan spektakl, kino va targ'ibot roliklarini ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, zamonaviy reklama moslamalari va jamoat transportlarida keng targ'ib qilish.			Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (O.Xujayev), Tibbiyot birlashmasi (O.Qo'ldoshev), O'zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo'limi (A.Kamalov), Yoshlar ishlari agentligi (M.Mamasobirov), Savdo sanoat palatasi (S.Egamberdiyev)
--	---	---	--	--	---

Mingbuloq tumani hokimining
2025-yil 8-apreldagi
161-6-81-Q/25-son qaroriga
2-ilova
2-ИЛОВА

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha

CHORA-TADBIRLAR REJASI

№	Vazifalar	Amaliy chora-tadbirlar	Ijro muddati	Moliyalashtirish Manbalari	Mas’ul ijrochi	
					Uyushma	Idora va tashkilotlar
Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish						
27-maqsad: Mamlakatda kambag‘allik darajasini qisqartirish						
Ijro uchun asosiy mas’ul — Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (Z.Axmadjonov)						
	51-band: Eng og‘ir ahvoldagi 6 ta mahallaning infratuzilmasini yaxshilash dasturini amalga oshirish.	1. Tanlab olingan mahallalarda tuman hokimligi, mahalla fuqarolar yig‘ini bilan mahallalarda kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan uch tomonlama shartnoma tuzish. 2. Mahallalarning infratuzilmasi holatini (elektr energiyasi, suv, gaz, sug‘orish tizimi, internet, ichki yo‘llar va boshqa) yaxshilash. 3. Tumandagi yirik korxona, tashkilotlarda taniqli san’atkorlar ishtirokida “Mahallam tozaligi – yurtim obodligi” mavzusida madaniy tadbirlar uyushtirish. 4. Barcha bo‘g‘indagi ta’lim muassasalarida yoshlar o‘rtasida	2025-yil davomida	Mahalliy byudjeti mablag‘lari hisobidan	Bo‘limlar	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Z.Jurabayev), Tijorat banklari, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo‘limi (A.Kamalov)

		tozalikka rioya qilish madaniyatini shakllantirish, ularning atrof- muhitga munosabatini yaxshilash va bu boradagi ijtimoiy mas'uliyatni oshirishga bag'ishlangan tarbiyaviy-ma'rifiy tadbirlar, seminar va ko'rik tanlovlar o'tkazish.				
--	--	---	--	--	--	--

**«O‘zbekiston — 2030» strategiyasining Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish
yo‘nalishi bo‘yicha 2025-yilga mo‘ljallangan**

T/r	Maqsadli ko'rsatkich	O'lchov birligi	2025-yil	I chorak	II chorak	III chorak	IV chorak	Mas'ullar
1.1. Ta'lim tizimi islohotlari								
1-maqsad: Maktabgacha ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning to'liq qamrovini ta'minlash								
1.	Bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasi.	foiz	87.2	86.7	86.8	87	87.2	Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi(O.Xujayev)
2.	6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlov tizimi bilan qamrov darajasi.	foiz	87.6	86.4	86.8	87.2	87.6	
3.	Yangi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni.	ta	6	0	1	3	2	
4.	Toza ichimlik suv va sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan ta'minlangan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari ulushi.	foiz	95	93.2	93.8	94.6	95	
2-maqsad: Umumiy o'rta ta'lim tizimida «Ta'lim uchun qulay muhit» dasturini amalga oshirish								
	Umumiy o'rta ta'lim tizimida yaratiladigan yangi o'quvchi o'rinlari soni.	mingta	0.29	-	-	-	0.29	Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi(O.Xujayev)
	Toza ichimlik suv va sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan ta'minlangan umumiy o'rta ta'lim muassasalari ulushi.	foiz	70	-	-	69.6	70	
3-maqsad: Umumiy o'rta ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish								
	Umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun yaratiladigan yangi darsliklar, mashq daftarlari, o'qituvchi metodika kitoblari soni.	nomda	65	15	15	20	15	Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi(O.Xujayev)
	Umumiy o'rta ta'lim muassasalariga jalb etiladigan xorijiy til egalari — mutaxassislar soni.	nafar	2	-	-	2	-	
4-maqsad: Pedagog kadrlar maqomini oshirish, ularning bilimi va malakasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish								

	Xorijiy mamlakatlarga malaka oshirish va stajirovkaga yuborilgan pedagog xodimlar soni.	nafar	1	1	-	-	-	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi(O.Xujayev)
	Uzluksiz malakasi oshirilgan maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari xodimlar soni.	ming nafar	600	180	180	60	180	
	O‘quvchilar uchun bepul maktab avtobuslari yo‘lga qo‘yilgan olis va chekka hududlarda joylashgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari soni.	dona	-	-	-	-	-	
5-maqsad: Umumiy o‘rta ta’limni rivojlantirish uchun xususiy sektorni keng jalb qilish								
	Nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari soni.	dona	2	-	-	1	1	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi(O.Xujayev)
6-maqsad: Professional ta’lim tizimini rivojlantirish orqali o‘quvchilarni zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga o‘rgatish								
	Kasbiy ta’lim muassasalarida malaka toifasiga ega bo‘lgan pedagog kadrlar ulushi.	foiz	40	25	30	35	40	Kasbiy ta’lim muassasalari direktorlari
1.2. Aholi salomatligini ta’minlash bo‘yicha islohotlar								
7-maqsad: Aholining o‘rtacha umr davomiyligini oshirish								
	Tug‘ilishdan kutilayotgan umr ko‘rish davomiyligi.	76 yosh	74,8	-	-	-	74,8	Tuman tibbiyot bo‘limi (O.Qo‘ldoshev)
	Onkologiya kasalliklar bo‘yicha 30 — 69 yoshdagi aholi orasida erta o‘lim ulushini kamaytirish.	foiz	7,6	-	-	-	7,6	
6.	Yurak-qon tomir kasalliklari bo‘yicha 30 69 yoshdagi aholi orasida erta o‘limni kamaytirish.	foiz	55	-	-	-	55	
7.	Diabet kasalligi bo‘yicha 30 69 yoshdagi aholi orasida erta o‘limni kamaytirish.	foiz	4,8	-	-	-	4,8	
8.	Nafas yo‘llari kasalliklari bo‘yicha 30 — 69 yoshdagi aholi orasida erta o‘limni kamaytirish.	foiz	0,6	-	-	-	0,6	

9.	Sil kasalligi bilan kasallanish darajasi.	100 ming aholiga nisbatan	34,0	9	18,0	26,1	34,0	
10-maqсад: Aholiga birlamchi tibbiy xizmatlarni yanada yaqinlashtirish								
10.	Diabet kasalligi bor bemorlarni davolash bilan to'liq qamrab olish.	foiz	100	100	100	100	100	Tuman tibbiyot bo'limi (O.Qo'ldoshev)
11.	Yurak-qon tomir kasalligi bor bemorlarni davolash bilan to'liq qamrab olish.	foiz	100	100	100	100	100	
11-maqсад: Bolalar o'rtasidagi irsiy kasalliklarning oldini olish va davolash samaradorligini oshirish								
	Bolalar o'rtasidagi irsiy kasalliklarni qisqartirish.	ta	30	-	-	-	30	Tuman tibbiyot bo'limi (O.Qo'ldoshev)
	Irsiy kasalliklar bilan kasallangan bolalarni dori vositalari, tibbiy buyumlar va shifobaxsh ozuqalar bilan to'liq ta'minlash.	foiz	100	100	100	100	100	
12-maqсад: Onalar va bolalar o'limini qisqartirish, sog'lom bolalikni ta'minlash								
12.	Onalar o'limini kamaytirish.	promille	12,5	12,9	12,8	12,7	12,5	Tuman tibbiyot bo'limi (O.Qo'ldoshev)
13.	Go'daklar o'limini kamaytirish.	promille	9,0	8,1	8,2	8,5	9,0	
14.	Besh yoshgacha bolalar orasidagi o'limni kamaytirish.	promille	10	10,6	10,4	10,2	10	
15.	Tug'uruq o'rinlari sonini oshirish.	dona	0	20	0	0	20	
13-maqсад: Onkologik kasalliklarni erta aniqlash va o'lim ko'rsatkichini kamaytirish								
	Xavfli o'sma kasalliklaridan 1 yilgacha o'lim ko'rsatkichini kamaytirish.	foiz	13,1	14,2	14,1	13,5	13,1	Tuman tibbiyot bo'limi (O.Qo'ldoshev)
14-maqсад: Yuqumli bo'lmagan kasalliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish								
	Yuqumli bo'lmagan kasalliklarni erta aniqlash darajasini oshirish.	foiz	58	14,5	29	45	58	Tuman tibbiyot bo'limi (O.Qo'ldoshev)
15-maqсад: Sog'lom va faol keksalikni ta'minlash								
	55 va undan katta yoshdagi aholini har yili profilaktik ko'rikdan o'tkazish.	foiz	100	25	25	25	25	Tuman tibbiyot bo'limi (O.Qo'ldoshev)
16-maqсад: Aholi orasida to'g'ri ovqatlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish								
16.	Anemiya bilan kasallanishni kamaytirish.	100 ming aholiga nisbatan	3393,3	892,4	2115,6	2896,8	3393,3	Tuman tibbiyot bo'limi

17.	Yod yetishmasligi bilan bog'liq kasallanishni kamaytirish.	100 ming aholiga nisbatan	459,8	-	-	-	459,8	(O.Qo'ldoshev)
17-maqсад: Tibbiyot sohasida raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish								
	Raqamli texnologiyalar joriy etilgan	foiz	75	72	73	74	75	Tuman tibbiyot bo'limi (O.Qo'ldoshev)

	tibbiyot muassasalari ulushini oshirish.							
1.3. Ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish va kambagʻallikni qisqartirish boʻyicha islohotlar								
18-maqсад: Professional ijtimoiy xizmatlarni koʻrsatish tizimini tubdan takomillashtirish								
	Mahalla darajasida manzilli professional ijtimoiy xizmat koʻrsatadigan ijtimoiy xodimlar faoliyatini yoʻlga qoʻyish.	nafar	40	40	40	40	40	"Inson" ijtimoiy markazi tuman boʻlimi boshligʻi (E.Abduraxmonov)
19-maqсад: Nogironligi boʻlgan shaxslarni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha yangi tizim hamda ular uchun qulay va maqbul muhit yaratish								
18.	Nogironligi boʻlgan muhtoj shaxslarni sifatli va zamonaviy protez-ortopediya buyumlari (son protezi, boldir protezi va oyoq kamari ortoped apparatlari) bilan taʼminlash.	foiz	25	4	8	8	5	"Inson" ijtimoiy markazi tuman boʻlimi boshligʻi (E.Abduraxmonov)
19.	Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar tizimida yengillik yaratish maqsadida sirdan nogironlik belgilanadigan kasalliklar va uning asoratlari roʻyxatini kengaytirish.	foiz	30	6	8	10	6	
20-maqсад: Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish								
	Oilada hamda muqobil parvarish qilishning boshqa shakllarida tarbiyalanayotgan yetim va ota-onasining qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalar sonining jami va ota-onasining qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalar umumiy sonidagi ulushi.	foiz	99,5	16	16	14	16	"Inson" ijtimoiy markazi tuman boʻlimi boshligʻi (E.Abduraxmonov)

20.	21-maqсад: Mamlakatda kambag'allik darajasini qisqartirish							
21.	Kambag'allik darajasini kamaytirish.	foiz	5,3	-	-	-	5,3	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi (Z.Axmadjonov)
22.	22-maqсад: Aholini daromadli mehnat bilan band qilish, ijtimoiy sug'urta tizimini takomillashtirish							
23.	Mehnatga layoqatli aholini, shu jumladan yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslarning	foiz	4,7	5,2	5,1	4,9	4,7	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi (Z.Axmadjonov)
	barqaror va samarali bandligini ta'minlash orqali ishsizlik darajasini tushirish.							
24.	Aholini mehnat faoliyatiga jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali ishsiz aholini ishga joylashtirishga ko'maklashish.	ming nafar	36,5	8,3	10,9	10,4	6,9	
25.	23-maqсад: Har bir fuqaroni davlat hisobidan kasb-hunarga o'qitish, ularning zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish bo'yicha kasbiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirish							
26.	Ish bilan band bo'lmagan fuqarolarni kasb-hunar, tadbirkorlik ko'nikmalari va xorijiy tillarga o'qitish.	ming nafar	18,7	5	5,3	4,8	3,6	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi (Z.Axmadjonov)
27.	Xalqaro standartlar asosida kasbga o'qitish markazlari o'qituvchilarining malakasini oshirish.	nafar	50	10	15	15	10	
28.	Kasb-hunarga o'qitishda xususiy sektor va «usta-shogird» maktablari ulushini oshirish.	foiz	17	4	5	4	4	
1.4. Yoshlarga oid davlat siyosati va sport yo'nalishlaridagi islohotlar								
24-maqсад: Yoshlarni zamonaviy kasblar va chet tillariga o'qitish tizimini yaratish								
29.	Yoshlarni zamonaviy kasblarga o'qitish.	nafar	10	-	3	5	2	Yoshlar ishlari agentligi (M.Mamasobirov)
